

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

(«Xalq so‘zi» gazetasi, 1992 yil 15 dekabr, 243 (494)-son; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y., 1-son, 5-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 3-4-son, 27-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011 y., 12/1-son, 343-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 15-son, 152-modda; 2008 y., 52-son, 510-modda; 2011 y., 16-son, 159-modda; 2014 y., 16-son, 176-modda)

MUQADDIMA

O‘zbekiston xalqi:
inson huquqlariga va davlat suvereniteti g‘oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e‘lon qilib,
hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas‘uliyatini anglagan holda,
o‘zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib,
demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib,
xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda,
respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta‘minlashga intilib,
insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlab,
fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadida,
o‘zining muxtor vakillari siymosida O‘zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi.

BIRINCHI BO‘LIM. ASOSIY PRINSIPLAR

I bob. Davlat suvereniteti

1-modda.

O‘zbekiston — suveren demokratik respublika. Davlatning «O‘zbekiston Respublikasi» va «O‘zbekiston» degan nomlari bir ma‘noni anglatadi.

2-modda.

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas‘uldirlar.

3-modda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy-davlat va ma‘muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi.

O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

LexUZ sharhi

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi [Qonuniga qarang.](#)

O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o‘z davlat ramzlari — bayrog‘i, gerbi va madhiyasiga ega.

LexUZ sharhi

[«O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida»](#), [«O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida»](#) va [«O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi qonunlarga qarang.](#)

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasining poytaxti — Toshkent shahri.

II bob. Xalq hokimiyatchiligi

7-modda.